

O'ZBEK TILINI O'RGANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Komilova Z.X

Farg'ona Davlat universiteti

Xumor851@mail.ru

Husanboyeva Shahlo Shuhratjon qizi

Farg'ona Davlat universiteti talabasi

shahlohusanboyeva432@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan o'zbek tilini o'rganish jarayonida elektron texnologiyalarning o'rnini va ahamiyatini tahlil qilishga asoslangan. Shuningdek, davlat tilini o'zlashtirishda raqamli tizimlarning ijobiy tomonlari va qulayliklari, ularning yoshlarga ta'siri teran yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, internet tizimi, davlat tili, o'zbek tilini o'zlashtirish, sun'iy intellekt, ta'lim, samaradorlik.

Kirish. Shiddat bilan globallashib borayotgan hozirgi davrda raqamli texnologiyalardan foydalanish zamon talabiga aylanib ulgurdi. Shu bilan birgalikda, elektron texnologiyalar har bir sohaning rivojlanishiga asosiy turtki bo'ldi hamda insoniyatga ko'plab qulayliklarni taqdim etdi. Ayniqsa, ta'lim sohasini yanada taraqqiy etishida raqamli tizimning o'rnini beqiyosdir. Jumladan, davlat tilimiz—o'zbek tilini teran o'zlashtirishda ham internet vositalaridan foydalanish ta'lim sohasining sifatini ko'tarishga va o'rganuvchini tilga qiziqishini bevosita oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda davlat tilimizga bo'lgan e'tibor kundan kunga ortib borayotgani hech birimizga sir emas. Shu o'rinda Prezidentimizning tilimizni rivojlantirish to'g'risida bildirgan fikrlarini keltirib o'tsak, „Mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatida o'rnini va ahamiyatini oshirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasini biz milliy o'zligimizni anglash, milliy ruhni saqlab qolish, yorug' kelajagimizni ta'minlashning eng muhim omili deb bilamiz". Ya'ni o'zbek tilini davlat tili sifatida mavqegini oshirish mamlakatdagi eng dolzarb masalalardandir va biz bu muammo yuzasidan, shubhasiz, elektron texnologiyalarga murojaat qilishimiz mumkin. Chunki mobil ilovalar, onlayn platformalar, video darslar orqali nafaqat o'zbek tilini, balki boshqa tillarni ham puxta o'rganish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Aynan o'zbek tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, buning bir qancha afzalliklari mavjud bo'lib, shubhasiz, ularni rad etib bo'lmaydi. Avvalo, o'rganuvchi onlayn platformalar orqali o'zbek tilini o'zlashtirish jarayonida faqatgina tinglovchi sifatida nazariy bilim

olish bilan cheklanib qolmay, balki olgan ilmini amalda qo'llab faol ishtirokchi bo'lishi ham mumkin. Bu esa o'quvchida faol nutq jarayonini rivojlanlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, shunday onlayn platformalar borki, ular orqali o'z tilimizni mukammal o'zlashtirish, nutqimizda uchrab turadigan varvarizm, vulgarizmdan xalos bo'lish imkoniga ega bo'lamiz. Bularga Yoshlar ishlar agentligi tomonidan ishlab chiqilgan „Ibrat farzandlari“, shuningdek, „Quizlet“, „Duolingo“ kabi platformalar yaqqol misol bo'la oladi. Har qanday foydalanuvchi bu internet platformalari yordamida so'z boyligini oshirishi, o'zbek tili grammatikasi bo'yicha qimmatli va ishonchli manbalardan olingan ma'lumotlarga ham ega bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda „O'zbek tili darslari“, „Til bilimi“, „O'rgan o'zbek tilini“ kabi mobil ilovalar yordamida istalgan joyda va vaqtda o'zbek tilini o'rganish mumkin. Bu usul an'anaviy o'quv jarayoniga nisbatan ko'proq qulayliklarni taqdim etadi, chunki internet zamon va makon erkinligi bilan kafolatlangan. Shu bilan birgalikda, „O'zbek tilining elektron lug'ati“ orqali har qanday foydalanuvchi tilimizdagi so'zlar ma'nolarini o'rganish hamda lug'at boyliklarini oshirish imkoniga ega. Mobil ilovalardagi YouTube, Telegram, Coursera kabi platformalarda o'zbek tilini o'rgatuvchi darsliklar, podkastlar, subtitrli videolar mavjud bo'lib, ular talaffuzni yaxshilash, so'z boyligini kengaytirish va tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

M.A.Uzoqovanning „Raqamli texnologiyalar orqali ona tili ta'limini modellashtirish va tashkil etish mexanizmlari“ mavzusida yozgan maqolasida multimedia vositalarining ona tilimizni o'rganish jarayonidagi interaktivlik-guruhdagi barcha talabalarni bir vaqtning o'zida faol ishlarga jalb etish; xatolar statistikasi-xatolarni tahlil qilishda o'qituvchi vaqtini tejash; „Rebus Generator“da onlayn boshqotirmalar yaratish kabi bir qancha afzalliklarini keltirib o'tgan. Bundan ko'rinib turibdi-ki, elektron texnologiyalar orqali o'zbek tilini o'rganish har tomonlama qulay va samaradorligi yuqori.

Xulosa qilib aytganda, 21 asr – axborot texnologiyalari davrida davlat tilimizni mavqeini oshirish, uni jahon tillari darajasiga olib chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalasi bo'lib kelmoqda. Raqamli texnologiyalar esa davlat tilimizni o'rganish jarayonini har tomonlama qulay, ayniqsa, bugungi kun talablariga to'la mos ravishda tashkil etilishiga zamin yaratmoqda. Shuningdek, raqamli tizim tilimizni nafaqat mamlakatimizda, balki jahon miqyosida ham o'rganilishini ta'minlab bermoqda. Shu boisdan ham, ona tilimiz-o'zbek tilini teran o'zlashtirish hamda butun dunyoga targ'ib qilishda raqamli tizimning o'rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mengaliyeva. M. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tilning o'zgarishi.

2. GRAHAM. S. (2019). "Innovations in Education. Remote teaching". ISBN:978-9974-8700-0-0. British Council, p.164.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 488 b.

4. Ta'lim muhitining transformatsiyasi: zamonaviy o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. Toshkent 2025-yil 16-aprel, 22-23-betlar.

5. Tojiboyev, I., & Karimova, N. (2022). Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning metodik asoslari. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 4(3), 87–95.

6. Qodirova, M. (2021). O'zbekistonda raqamli ta'limni joriy etishning tashkiliy-pedagogik asoslari. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 2(1), 56–63.

7. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023). Some approaches to teaching programming languages in professional educational institutions. *Education and science in the XXI century*. 2 (38).

8. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023) The role of information technologies in teaching technical sciences in professional educational institutions. *Scientific and practical journal "Technique"*. Issue No.1.

9. Komilova, Z. Kh. (2023). The role and importance of information technology science in today's society. *Education and innovative research*. Bukhara State University, 2(2), 234-237.

10. Komilova Z.Kh, Nazirjonova. F.S The role of new information technologies in education. *Экономика и социум*. 2021, № 4-1 (83), -C.167-170.

11. Z. X. Komilova. Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiyatdagi o'rni va ahamiyati // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro davlat universiteti. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 234-237.

12. Z. X. Komilova & F. S. Nazirjonova. (2020). The value and role of interactive methods in the development of information technology in primary school pupil. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal)*. ISSN, 2249-7137.